

SHOIR ANDALIB IJODIDA NASIMIY OBRAZI

Norimova Ozoda Abdurashitovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tyutori

E-Mail: ozoda.norimova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10572334>

Annotatsiya: Maqolada XVIII asr turkman adabiyotining taniqli vakili Nurmuhammad G'arib – Andalibning ijodidagi merosida diniy-tasavvufiy g'oyalar va so'fiyona qarashlariga e'tibor qaratilgan. Unung Sayid Imomiddin Nasimiy bag'ishlangan "Risolai Nasimiy" qissasi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: XVIII asr she'riyati, turkman adabiyoti, Nurmuhammad G'arib – Andalib, nasr, nazm, qissa.

Sayid Imomiddin Nasimiy haqidagi qissalar, she'riy asarlar, umuman, uning nomi zikr etilgan badiiy adabiyot namunalari buning dalilidir. Ana shunday asarlardan birining ijodkori XVIII asrda Xiva xonligida yashab, o'zbek va turkman tillarida ijod qilgan turkman shoiri - Andalib (Bulbul) hisoblanadi. Haqiqiy ismli Nurmuhammad G'arib hisoblanib, mumtoz adabiyot tarixida turkman va o'zbek xalqining mushtarak adibi sifatida tan olingan [1;192]. Hattoki, o'z davrida ma'rifatparvar olim va shoir Munis Xorazmiy Alisher Navoiy, Mavlono Fuzuliy qatori Andalibni ham o'zining ma'naviy ustozlari deb hisoblagan [2].

Adabiyotshunos olimi Iqboloy Adizova shoir Andalib haqida shunday mulohaza bildiradi: "Andalib ijodida Navoiy, Fuzuliy, Mashrab an'alarining ta'siri va davomiyligini ko'ramiz. Ulardagi g'oyalar mutanosibligini, timsollar uyg'unligi va dunyoqarash hamohangligini his qilamiz" [1;194].

Shoir Andalib badiiy merosini rang-barangligini uning - lirik devoni, "Yusuf va Zulayho", "O'g'uznoma", "Risolai Nasimiy", "Sa'd Vaqqos", "Zaynul arab" kabi qissa-dostonlari orqali ko'rishimiz mumkin. Shoir Andalib nazmiy merosida diniy-tasavvufiy g'oyalar va so'fiyona qarashlar keng tarannum etiladi. Bunga Boboraxim Mashrabga taqlidan yozgan she'rlari o'zbek va turkman xalqlarining sevimli qo'shiqlariga aylanganligi guvohlik beradi.

Ushbu maqola orqali shoirning "Risolai Nasimiy" qissasiga e'tiborimizni qaratib, o'z qarashlarimizni bayon etishga harakat qilganmiz.

Shoir Andalib qalamiga mansub "Risolai Nasimiy" qisasi ham nasriy, ham nazmiy shaklda yozilgan. Asarda hamd, na't, munojot, kirish kabi an'anviy qismlardan so'ng, Mansur Halloj hayoti tasviri bilan asosiy sujet boshlanadi. Qissa shu tarzda davom etib, Mansur Halloj vafotidan bir necha vaqtlar o'tib qayta Sayid Nasimiy bo'lib bo'lib dunyoga keladi. Bu kabi boshlanmaning o'ziga xos mazmuni shundaki, bosh qahramon Sayid Nasimiy obrazi Mansur Halloj shaxsiyatiga muvofiqlashtirilgan. Uningdek adolatsizlik va zulmga qarshi kurashi, o'z so'zidan voz kechmasligi, shunindek, dinni dastak qilib xalqni aldab kelayotgan riyokor dindorlarni ham o'ziga tik boqib so'zlashi, ham she'riyati orqali fosh etishi kabi qator o'xshash jasoratlarini ko'rsatishga ishoradir.

"Risolai Nasimiy" qissasida yuz baytli masnaviy keltirilgan bo'lib, u

"Siposi beqiyos ul zuljalola,

Sitoyish benihoyat loyazola" [3;41].

bayti bilan boshlanadi. Ushbu she'r mazmunan kirish qismlari bo'lib quyidagi misralar bilan tugaydi:

“Ey, Andalib, ketdi bu duyodan hamma er,

Bir makr va aldov bilan hammani yuzini shuvit etdi qildi qora yer” [3;98].

Shuningdek, Sayid Nasimiy obrazida Mashrabga yaqinlik jihatlarni ham ko‘rish mumkin. Mashrabning maktabda mullo o‘rgatgan “alif”ni takrorlab, “be”ni aytmasligi Nasimiyga ham xos xususiyat bo‘lib, o‘xshashlikni vujudga keltirgan:

“Tiliga joriy qildi ul alifni,

O‘qutmoq uchun ul damda Nasabni.

Nasab „alif“ dedi anga barobar,

Desa, mullosi “be” dedi, sarosar.

Yana takror aytib qildi ado,

Nasab na der “be”ni qildi ziyoda.

Ki hargiz „be“ demas, urdi yuziga,

To‘lib xunobadek yosh ko‘ziga,

Dedi mullog‘a o‘ltursang o‘zimni,

Demasman ul so‘zing eshit so‘zimni”.

Sayid Nasimiy haqida so‘z borayotganda uning tilidan g‘azallar keltirilgan. Bu esa, sujetning ichki bog‘lanishini yuzaga chiqarish uchun xizmat qilgan. Bunda o‘ziga xos bir jihat mavjud bo‘lib, ushbu she‘riy parchalar Sayid Nasimiyning ham, muallifning ham qalamiga mansub emas.

Qissada shoir Andalib qalamiga mansub “Layli va Majnun” dostonidan ham parcha mavjud:

“Gohi kelib o‘zina, gohi mahzub, Gohi alfozi kufr aylab gohi xub.

Necha yillar bo‘lib cho‘llar makoni, Chu Majnun vahshiylar birla ravoni” [3; 86] deb, Nasimiyning cho‘lu biyobonda sarson sargardon, goh hush goh majnun bo‘lib kezishini tasvirlab bergan.

Xulosa shuki, asarda boshqa ijodkorlarning asaridan ijodiy ko‘mak olingan. Ya‘ni muallif ularning she‘rlarini obrazlar tilidan bayon ettirgan. Bu orqali o‘z qahramonlarini jonlantirgan. Shu bilan birga qissada adabiyotshunoslikda hozirgacha tahlil etilmagan holat mavjudki, u ham bo‘lsa bir asar turli vaznda yozilgan. Bu holatlar o‘ziga xos uslubdir. Bibixonim g‘azali, Munojoti Duxtari, Saidiy taxallusi bilan keltirilgan parchalar asarning emotsional ta‘sirini oshirishga xizmat qilgan.

References:

1. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (XVI-XIX аср I ярми). Ўқув қўлланма. - Т.: Фан, 2006. – 248 б.
2. Мунис, Шермуҳаммад. Танланган асарлар // Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Ю.Юсупов – Т.: Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1957. – 384 б.
3. Андалып Нурмухаммет. Несими / Ылмы ред. А.Ашыров. - Ашгабат, “Ылым” нашриёти, 1992. – 116 с.
4. Тохиров С. Ўзбек шоири Асирий ва «Сайид Насимий» қиссаси // Ўзбек тили ва адабиёти. - 4/2003 йил №4. – Б. Б.71-73.
5. Салохий Д. Тасаввуф ва бадий ижод. Ўқув қўлланма // Тошкент Навруз. – 2018.
6. Салохий Д. Мутафаккир ва мумтоз шеърят // Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази” нашриёти. – 2018.

7. Toxirov Sobir, Yuldosheva Saodat. Asiriy va uning “Said Nasimiy” qissasasi. – Samarqand: SamDU, 2020. – 108 b.
8. Селезнева Л. В. Нарративный дискурс дастана Лейли и Меджнун Нурмухаммеда Андалиба и традиции восточной поэзии //Східний світ. – 2012. – №. 3. – С. 88-93.
9. Сулаймонова Н. С. Жизнь и деятельность Саида Имодиддина Насими //Вестник педагогического университета учредители: Таджикский государственный педагогический университет им. С. Айни. – №. 6. – С. 190-194.
10. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.
11. Qahramonovich H. N. Zamonaviy Markaziy Osiyo Falsafasinini Ikki Dahosi //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 43. – С. 6-9.
12. Azizqulov A. A., Yusupov M. S. Gazali on the essence of the human spirit //Europäische Fachhochschule. – 2014. – №. 5. – С. 106-108.